NAIL BAHADIROV

# *Ansambl sinfi*

# Класс ансамбля

NAIL BAHADIROV

# ANSAMBL SINFI

КЛАСС АНСАМБЛЯ

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON MADANIYAT VAZIRLIGI**
**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

МИНИСТЕРСТВО КУЛЬТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**NAIL BAHADIROV**

**НАИЛ БАХАДИРОВ**

# ANSAMBL SINFI
# КЛАСС АНСАМБЛЯ

**OLIY TA’LIM MUASSASALARI BAKALAVRIAT BOSQICHI TALABALARI UCHUN**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**УЧЕБНОЕ ПОСОБИЕ ДЛЯ СТУДЕНТОВ**

**БАКАЛАВРИАТА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

**TA’LIM YO‘NALISHI**: 602 11 500 – CHOG‘U IJROCHILIGI
**FAN NOMI**: ANSAMBL SINFI (XALQ CHOG‘ULARI ANSAMBLI)

# ANSAMBL SINFI

# КЛАСС АНСАМБЛЯ

Muallif: GULDU, san’atshunoslik fakulteti, “An’anaviy xonandalik va xalq cholg‘ulari” kafedrasi o‘qituvchisi
**N.SH. Bahadirov**

**Taqrizchilar:** O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori **O.F.Nazarov**

Musiqa rahbari, Sirdaryo viloyat musiqali drama teatri,

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist: **R.Hasanov.**

Ushbu o‘quv qo‘llanmaga Guliston davlat universiteti o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambl dasturlaridan o‘rin olgan asarlar partituralari kiritilgan. O‘quv qo‘llanmadan madaniyat va san’at o‘quv yurtlarining orkestr sinfi, dirijorlik fanlari darslarida o‘quv qo‘llanma sifatida hamda professional va havaskorlik ansambl jamoalarining konsert repertuarlarida ham foydalanish mumkin.

Данное учебное пособие включает в себя партитуры произведений, которые наиболее часто включаются в программу ансамбля народных инструментов Гулистанского государственного университета. Пособие может быть использовано учебных заведениях культуры и искусств на уроках по дирижированию и концертного репертуара для профессиональных и самодеятельных ансамблей народных инструментов.

# Ansambl sinfi (Kirish)

Sayyoramizning turli mintaqalarida musiqa madaniyati rivojlanishi yo‘llari juda xilma-xildir. Insoniyat bir vaqtning o‘zida turli xalqlar o‘rtasida madaniy rivojlanishning turli bosqichlari mavjudligini kuzatish mumkin bo‘lgan davrda yashaydi. Jahon sivilizatsiyasining butun tarixida turli xalqlar bir-biri bilan muloqot qilib, bir-biri bilan o‘zaro madaniy munosabatda bo‘lib, bir-biriga madaniy-ma’naviy ta’sir qilishi ortida inson faoliyatining turli sohalarida o‘zlarining eng yaxshi an’analarini rivojlantira olganligini, o‘z madaniyatining gullab-yashnashiga hissa qo‘shganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Turli tarixiy davrlarda ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar tufayli madaniy taraqqiyot rivojlanish qiyosi yo Sharqqa, yo G‘arbga berilgan. – Siyosiy va geografik chegaralar, kundalik hayotdagi, turmush tarzidagi farqlardan va hokazolardan qat’i nazar, o‘tmishdagi badiiy tajribaning eng yaxshi yutuqlarining davom etishi jahon madaniyati rivojining eng muhim omillaridan biridir, – degan T.S. Vizgo.

Cholg‘u san’atini birlashtiruvchi va tashkil etuvchi musiqiy tafakkur va o‘quvchilarning darsga qiziqishini rivojlantirishga qaratilgan jamoaviy ansambl musiqasi amaliyotisiz yakka cholg‘uchilarni to‘liq tayyorlash mumkin emas. Aralash ansamblda ijro qilish ansambl a’zolarining barcha qobiliyatlari birligi uchun katta rivojlanish salohiyatiga ega: o‘lchovni his qilish, musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanib, musiqiy ko‘lami kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, badiiy did shakllanadi. Xalq san’atini ommalashtirishda ansambllarning konsert faoliyati uchun zarur bo‘lgan jamoaviy ansamblda ishlash cholg‘uchining erkinligini engillashtiradi va ommaviy konsert faoliyati chiqishlarida cholg‘uchiga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi uchun jarayonni tezlashtiradi. V.V.Andreev shunday degan edi: “Xalq cholg‘u san’atining asosi jamoaviylikdir va buning eng yaxshi yo‘li xalq cholg‘u asboblarida jamoaviy musiqa amaliyotidir”.

O‘zbek xalqining zamonaviy cholg‘u san’ati madaniyati monodik san’at turida shakllanib, O‘rta Osiyo antik davrlaridan boshlab ko‘plab xalqlarning say-harakatlari bilan yaratilgan murakkab va serqirra hodisa bo‘ldi. Temperatsiya va xromatizatsiya tamoyillarini amalda tabiq etish, yozma an’anani joriy etish, musiqiy tuzilmani me’yorlashtirish, dasturni shakllantirish natijasida bizni jahon musiqa madaniyati bilan bog‘lovchi, o‘zbek musiqa ijodining yangi shakli – milliy cholg‘u asboblarida ko‘p ovozli jamoaviy ijro qilish paydo bo‘ldi.

20-asr boshlari O‘zbekistonda xalq cholg‘u asboblari ijrochiligining faollashishi bilan bog‘liq. Birinchi o‘n yillikdayoq musiqa ta’limi, xalq og‘zaki ijodi, sahna san’ati sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi, Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon, Samarqandda xalq cholg‘u ansambllari tashkil etildi. Ularga taniqli cholg‘uchilar: Usto Olim Komilov, To‘xtasin Jalilov, Ahmadjon Umurzoqov, YUsufjon – Qizik SHakarjonov, Usto Ro‘zimat Isabaev, Matyusuf Xarratov, Usto Toyir, Ma’rufjon Toshpo‘latov, Muhitdin Mavlyanovlar rahbarlik qilishdi. “Bahor”, “Zarafshon”, “Lazgi”, “Tanovar”, “Sumalak”, “Momogul”, “Navoiy navolari”, “Namangan gullari”, “Samarqand baxori”, “Boysun”, “SHodlik” kabi qo‘shiq va raqs ansambllari va boshqa ko‘plab ansambllarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ansambl so‘zi - fransuz tilidan “ensemble”, "birga, ko‘p" - bir nechta ishtirokchilardan iborat musiqiy asarning qo‘shma ijrosi va kichik ijrochilar guruhi uchun

musiqiy asarning o‘zidir. Ansambllar vokal, instrumental va ijro janri bo‘yicha: (rok-bend, estrada, xalq) ko‘rinishlariga bo‘linadi. Ansambl turlari ijrochilar soniga qarab (2 va undan ortiq) duet, trio, (tersetto), kvartet, kvintet, sekstet, septet, nonet, detsimet, undetsimet yoki duodetsimet (sonlarning lotincha nomlariga ko‘ra) deyiladi. deb nomlanadi.

Bir yoki bir nechta sheriklar bilan ijro qilish qobiliyati - musiqachi-ijrochi professional mahoratining eng muhim jihatlaridan biridir. Musiqiy ansamblda muvaffaqiyatli ijro qilish uchun musiqachining o‘z cholg‘usida ravon ijro qilishi etarli emas. Ansamblda cholg‘uchining ijrosi yakkaxon chiqishdan farqli o‘laroq sahna san’atining alohida turi sifatida farqlanadi.

Ishtirokchida ansambl orqali mahoratni qo‘llay bilish mahorati rivojlanadi. (A.Gotlib. Ansambl texnikasi asoslari. M.Muzika, 1971, 94 b.).

Agar yakkaxon-sozanda faqat o‘zini tinglashga odatlangan bo‘lsa, unda ansambl ijrochisi yakkaxon uchun odatiy bo‘lgan eshitish markazidan voz kechishi kerak, chunki uning cholg‘u asbobining ovozi endi yagona qiymatni anglatmaydi va ansambldagi boshqa cholg‘ularning ovoziga bog‘liq bo‘ladi. Turli janr va stilistik shakllardagi ansambl san’ati barcha tarixiy davrlarda hamisha kompozitorlar, ijrochilar va tinglovchilar orasida keng shuhrat qozongan va bugungi kunda ham mashhur bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy dunyoda konsertlar, tanlovlar, ansambl musiqa festivallari juda faol o‘tkazilmoqda, turli ijodiy tashkilotlar faol ishlamoqda. Anjuman va simpoziumlar kamera va ansambl musiqasi muammolariga alohida urg‘u berib kelmoqda. CHolg‘u asboblarini jamoaviy ijro etish vatanparvarlik tarbiyasi va o‘quvchilarni musiqa san’atiga o‘rgatishning kuchli vositasidir. Ansambl bo‘lib ijro qilish san’ati ijrochilarning ijodiy sa’y-harakatlarini doimiy ravishda muvofiqlashtirishga asoslanadi, umumiy ovozni eshitish qobiliyatini va o‘z ijro uslubini boshqa sheriklari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. “Ansambl sinfi” darsning tuzilmasi musiqa ta’limining ko‘plab jihatlarini o‘z ichiga olishi kerak, ular nazariy bilimlarni, musiqiy ifoda vositalarini o‘rganishni, badiiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, musiqiy tovush balandligi, bo‘yog‘i, musiqiy harakat tezligi, garmonik va ritmik eshitish, notaga qarab varaqdan o‘qish musiqiy texnik ko‘nikmalarini egallashni o‘z ichiga olishi kerak. Ansambl o‘qitish usuli juda foydali bo‘lib, unda o‘quvchi faol musiqa ijodiga jalb qilinadi, musiqa asarining badiiy obrazini to‘liq idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ansambl bo‘lib ijro qilish ritm tuyg‘usini, garmonik eshitishni yaxshi rivojlantiradi, musiqa asarlarining ko‘p elementli tuzilishini idrok etish va o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ansambl musiqa matnini ko‘rib o‘qish, turli xil gammalar va mashqlarni turli xil tonallikdai, intervalli va akkord birikmalarida o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ishning birinchi davrida ansambl ishini rang-barang qilish uchun bir-biriga qarama-qarshi tempda va xarakterga ko‘ra turlicha bo‘lgan pesalar tanlanishi kerak. Sozlash paytida torlarning tovushi odatda cholg‘u quloqlari pastga tushib ketishini inobatga olib, biroz ko‘tariladi. Tanlab olingan asarlarning harakat tezligi, xarakteri va tuslarining doimiy o‘zgarishi musiqachilarning ijro bilan band bo‘lishiga yordam beradi. Asarni sekin sur’atda o‘rganayotganda, musiqiy matnning aniq ijro qilinishiga erishish kerak. Eng qiyin qismlarda esa alohida ishlash zarur. Agar ansambl darhol butun asar bilan shug‘ullanishiga ishonchi komil bo‘lsa, texnik va ritmik murakkabliklar ustida ish boshlash kerak. Asarning har bir partiyasi ustida alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Agar asar ijrosi ustida ish natija bermasa, mashg‘ulotlarda rejasiz tanaffus qilib, keyin yana asar ustida ishlash kerak.

Mashg‘ulotning birinchi qismida ansambl yanada murakkab ish bilan shug‘ullanishi, yangi asarni o‘rganishi va texnik jihatdan qiyin qismlarda ishlashi kerak. Mashg‘ulotning ikkinchi qismida avval o‘rganilgan asarlarni ijro qilish maqsadga muvofiqdir. Mashg‘ulotning boshida ishtirokchilarning ishlash faoliyati samarali bo‘lib, aqliy va ruhiy faolligi yuqori bo‘ladi; mashg‘ulot oxiriga kelib, charchoq, e’tibor tufayli ruhiy ta’sirchanlik pasayadi, ish ancha qiyinlashadi. Musiqa asarini izohlashda matn ustida puxta ishlash kerak. Ansamblda har bir ishtirokchi e’tibor markazida bo‘lganligi uchun ansambldagi ijrochilarga orkestrdagidan ko‘ra ko‘proq mas’uliyat yuklanadi. Har bir ishtirokchi texnik jihatdan ilg‘or bo‘lishi, o‘z partiyasini puxta bilishi kerak, chunki ijro davomida har bir xato ko‘zga tashlanadi.

Ansambl rahbarining vazifasi: ansambli uchun biron bir asarni moslashtirish yoki orkestrlashdan oldin o‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli uchun cholg‘u asboblari yaratilishining asosiy qonuniyatlari va tamoyillarini bilishi kerak. Rahbar - ansambl sinfining bevosita tashkilotchisidir. U ansambl mashg‘ulotlari nafaqat o‘quv-amaliy, balki katta tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham ko‘zlab borishini doimo yodda tutishi kerak. Haqiqiy o‘qituvchi-rahbar har bir ansambl sozandasining ruhiyatini yaxshi bilib, u bilan doimo til topisha olishi kerak.

Ansambl rahbari quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi: o‘ta vazminlik va xushmuomalalik, to‘g‘rilik, har kimga individual yondashuvni rivojlantirishi zarur. Qat’iylik va talabchanlik, sabr-toqat, mo‘ljallangan rejaga, tamoyillarga rioya qilish va shu bilan birga, ishtirokchilarga ta’sir qilish vositalarini tanlashda moslashuvchanlik ijodiy muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi. Ansambl a’zolari o‘z faoliyatidan estetik mamnuniyatga ega bo‘lgach, rahbar talablarining adolatliligini anglay boshlaydilar, unga bo‘lgan ishonch va hurmatni namoyon qiladilar.

Repertuar tanlashda ishtirokchilarning xohish-istaklarini inobatga olish ham maqsadga muvofiqdir – xalq va mumtoz musiqasidan tashqari, kutilmagan yangilik baxsh etadigan ko‘plab yaxshi estrada musiqalari mavjud. Agar tanlab olingan asar qiziqarli cholg‘ulashtirilib, professional darajada ijro etilgan bo‘lsa, sozandalar va tinglovchilar bunday ijro sifatini aniq ajratib ola biladilar. Ansambl rahbari har bir sozanda-ijrochining texnik imkoniyatlarini hisobga olishi kerak. U bilishi kerak: har bir asbobning tuzilishi, ishchi diapazoni, tovush chiqarish usullari, zarbalar va ularning notadagi belgilanishini bilish ansambl rahbari uchun zarurdir. Ansambl rahbari cholg‘ulashtirish yoki aranjirovka qilish ijodiy jarayon ekanligini unutmasligi, bu ishga ma’noli va chuqur yondashishi, ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish, partitura sadolanishini tasavvur qila olishi kerak.

Ansambl va orkestr uchun o‘z partiturasini qayd etib borish maqsadida zamonaviy ansambl rahbari uchun “Subelius” musiqa dasturini o‘zlashtirishi juda foydalidir. “Sibelius” musiqa dasturi zamonaviy musiqa texnoloiyasida ajoyib hodisa bo‘lib, u juda qulaydir. Yakunlangan partituradan ansambl, orkestr uchun partiyalarni qulay va tez chop etish, asar matnini istalgan kalitga o‘tkazib, natijada vaqtni tejash imkoniyatini beradi.

Har bir xalqning o‘z milliy cholg‘u asboblari bo‘lib, ularning tarixi asrlarga borib taqaladi. Odamlar musiqa asboblarini chalish orqali qo‘shiq aytib, raqsga tushib, musiqani kundalik hayotga hamroh qildilar. Xalq cholg‘u asboblari bizga ajdodlarimizdan meros. O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambllari amaliyotida cholg‘ularning ma’lum nisbatlari va munosabatlari rivojlangan.

An’anaviy: nay, g‘ijjak, chang. Dutorlar: alt, prima, bas. Ruboblar: qashqar, afg‘on, zarbli cholg‘u asboblari (doira).

Badiiy ehtiyojga ko‘ra ansambl tarkibiga pianino, marimbafon yoki ksilofon, akkordeon va boshqa zarbli cholg‘u asboblarini ham kiritishimiz mumkin. O‘zbekistonda ijrochilik san’ati, dasturining rivojlanishi va shakllanishi bastakorlik ijodiyotining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu sohalar bir-biridan ajralmas bo‘lib, ishning asosiy natijasi ansamblning konsert sahnasida chiqishidir.

Ansambllar konsert dasturirining rivojlanishiga 1991 yilda tashkil etilgan “So‘g‘diyona” kamer orkestri (badiiy rahbari F.R.Abdurahimova) faol+iyati, har yili o‘tkaziladigan respublika, keyinroq xalqaro festival va ko‘rik-tanlovlar katta ta’sir ko‘rsatdi.

Xalq cholg‘ulari orkestrlari va ansambllari o‘rtasida o‘tkazilgan “Navro‘z sadolari” festivali jamoalarning ijodiy rivojiga xizmat qildi. SHubhasiz, ularning ijro saviyasi va dasturiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ijodi tufayli o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida ijrochilik san’ati ko‘pchilikning umumiy, ommaviy boyligiga aylangan.

Halq cholg‘ulari ansamblini ikki turga ajratish mumkin:
Bir turdagi:
A) naychilar ansambli;
B) changchilar ansambli;
V) rubobchilar ansambli;
G) dutorchilar ansambli;
D) g‘ijjakchilar ansambli;
Aralash turdagi:
A) Dutorchilar va rubobchilar ansambli;
B) Dutorchilar va changchilar ansambli;
V) Dutorchilar rubobchilar va changchilar ansambli va h.k

(Aralash - turli xil tovush manbalari, tovush chiqarish usullari va turli akustik muhitlarga ega asboblardan foydalanadigan ansambllar)

## “Ansambl sinfi” fanining maqsadi va vazifalari.

“Ansambl sinfi” fanining maqsadi o’quvchi va talabalarni xalq cholg’ulari turli xil ansambllar faoliyatiga ijrochi-sozanda sifatida amaliy tayyorlashdan iborat. Ansambl xalq cholg’ulari sozandalarining o’zaro ijodiy aloqalari chegarasini kengaytiradi. Bunda, o’quv dargohidagi boshqa yo’nalishlarda tahsil olayotgan pianinochi, urma-zarbli cholg’u sozandalarini ham ansambl hamkorlikga jalb qilish mumkin. Ansambl yakkaxon-sozanda, yakkaxon-xonanda, akademik yoki an’anaviy xonanda va xor jamoasiga ham jo’rnavoz vazifasini bajarishi mumkin. Ansambl rahbarining butun e’tibori musiqiy asarning baravar ijro etilishi, tovushlarning uyg’unligi, jumlalarning bir xilligi, agogika, shtrix va to’g’ri ohangni yo’llanilishida bo’lishi kerak. Repertuar tanlashda musiqiy asarning murakkablilik darajasiga, badiiy

g’oya muhimligiga, cholg’ulashtirishning sifatiga va shu orkestr tarkibiga qanday moslashtirilishiga ahamiyat berish zarur. Ba’zida, tanlangan asar partiturasi, yoki uning cholg’ulashtirilganligi ansamblga mos kelmasligi mumkin, ushbu holda musiqiy asarni boshqatdan cholg’ulashtirishga to’g’ri keladi. Rahbar musiqiy asarni cholg’ulashtirish yoki moslashtirishdan avval xalq cholg’ulari ansamblga moslashtirish qonun-qoidalarini yaxshi bilishi lozim. Cholg’ularning tabiiy xususiyatlaridan tashqari, rahbar, ularning ishchi diapazoni, tovush chiqarishi, shtrixlari, ohang yo’llanilishining qoidalari va akkordlarning tuzilishini bilishi kerak. Musiqiy asarni cholg’ulashtirish va moslashtirish ijodiy jarayon hisoblanadi. Kuyning xarakteri, jo’rnavozligi va garmonik jo’rligini inobatga olmay asar matnini ko’chirish kerak emas.

Repetitsiya mashg’ulotlarini muloyimlik va og’ir – bosiqlilik bilan o’z g’oyasini ilgari surgan holda, maqsad tomon intilgan holda olib borish kerak. Muntazam tanaffuslar va to’xtab qolishlar ijodiy muhitni buzadi va e’tiborni chalg’itadi, shuning uchun zarur bo’lib qolgan vaqtlarda tanaffus qilish kerak. Ansambl rahbari repetitsiya mashg’ulotlarida sozandalardan tartib-intizomni saqlashga va zarur bo’lmagan hollarda cholg’uni chalavermaslikni talab qilishi kerak. Tovushqator sofligiga, musiqiy jumlalarga va to’g’ri nafas olishga jiddiy e’tibor qaratmoq lozim. Kontsert dasturini tuzishdan avval, bisotdagi ijro qilinadigan asarlar miqdoriga, musiqiy asarning umumiy xarakteriga, namoyishning davomiyligiga e’tibor qaratilsa, kontsert dasturi muvaffaqiyatli yakunlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Konsert oldidan uzoq repetitsiyalarni o’tkazib sozandalarni toliqtirib qo’ymaslik kerak. Ansambl jamoasini namoyishdan avval nafaqat badiiy nuqtai nazardan, balki ruhiytomonday ham qo’llab-quvvatlash joiz.

Konsert namoyishlari jismonan ham ruhiy kuch-quvvatni, hamda sahna hayajonini jilovlay olishni talab etadi. Tinglovchini zavqlantira oladigan jo’shqin musiqiy asar kontsert namoyishining eng yuksak cho’qqisi bo’lishi mumkin. Tomoshabinlar har bir konsertdan ozgina bo’sa ham baxtli bo’lib chiqishlari kerak, insonlarning hayotini biroz bo’lsa ham, go’zalroq qilish zarur.[1]

[1] Zemlyanskiy B. Musiqa pedagogikasi to’grisida. M.,1987.36

***Talabaning mustaqil ishi uchun:***

1.“Ansambl sinfi” fanining maqsadi?
2. Repetuar tanlashda dirijor nimalarga e’tibor berishi lozim?
3. Konsert namoyishiga qanday tayyorgarlik ko’rish kerak?
4.Ansambl repetitsiya mashg’ulotlarida nimalarga e’tibor berish kerak?
5. Ansambl mashg‘ulotlarini qanday o‘tkazish kerak?
6.Ansambl rahbari mashg‘ulotlar paytida orkestr ishtirokchilaridan nimani talab qilishi lozim?
7. Ansambl konsert dasturini qanday tuzish kerak?

## Ansambl bilan ishlash uslubiyoti.

Dastavval, ish jarayonini gammalar ustida ishlash bilan boshlash kerak. Gammalarni turli ritmik ko'rinishlarda, turli tonalliklarda, tovushqatorlarda, turli sur'atlarda, unison va interval, kvarta-kvinta doira aylanmasi tonalliklarida pp va ff dinamik tuslarini qo'llagan holda ijro etish zarur. Ansambl bilan ishlashning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud va ularni ikki bosqichga ajratish mumkin:

1) Ansamblning barcha a'zolari bilan odatda, musiqa asari bilan tanishish jarayoni ansambl rahbarining asar rahbari musiqiy asarni tahlil qilishdan oldin, musiqiy asarning xarakteri, hissiy - ifoda mazmuni haqida so'zlab, so'ngra uning tematik asosini so'zlab berishi lozim. Shundan so'ng ansambl rahbari asarni notaga qarab o'qish taklifini beradi.

2) Musiqiy-texnik usullar ustida ish boshlanadi. Asarni jumlalarga bo'lib, musiqiy kichik iboralari, ohangi, musiqiy chizgilari ustida, asosan kamonli va mizrobli cholg'ular ustida ishlash jarayoni kechadi.

3) Butun boshli jamoa bo'lib musiqiy obrazlar ustida ishlanadi, bu vaqtda, o'quvchi va talabalarni alohida ijro etayotgan sozandalar guruhi ijrosini e'tibor bilan tinglashga o'rgatish zarur. Boshqa sozandalarni toliqtirib va zeriktirib qo'ymaslik uchun orkestr rahbari o'z talabini qisqa va lo'nda ifodalamog'i lozim. Rahbarning butun e'tibori musiqiy chizgilarning bir vaqtda ijro etilishiga va o'zaro partiyalar ijrosining ohang uyg'unligi, birgalikda boshlash va yakunlash mutanosibligiga qaratilishi lozim.

Pedagoglar odatda jo'rnavoz vazifasini bajaradilar. Ularning ishtiroki maktab o'quv Ansambldagi tartib-intizomni mustahkamlab, professional jamoaning ichki tartib muhitini kafolatlaydi ŗepertuar imkoniyatini kengaytiradi. Repetitsiya mashg'ulotlarida sozandalarni bir vaqtning o'zida notaga qarab ijro etish va dirijyor imo-ishorasi, harakatlarini ham kuzatib borishni tarbiyalash muhimdir. O'quvchilar yaxlit bir guruh bo'lib Ansambl tomonidan ijro etilayotgan musiqiy asarning yordamchi ovozlarini, jo'rnovozlarni, asosiy mavzuni anglashi va tinglay bilishi lozim. Ta'lim jarayoni oddiydan murakkablik darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishi kerak. Vaqt me'yorini ham unutmaslik kerak. Umuman olganda, talabalar orkestri bilan ishlash uslubiyoti maktab o'quvchilari orkestri bilan ishlash uslubiyotidan deyarli farq qilmaydi. Ba'zan, bolalar yoshidagi o'quvchilardan tashkil topgan orkestr ijrosidagi ijrochilik mahorati professional darajagacha ko'tarilishi mumkin. Barchasi tanlangan musiqiy dastur va bolalar bilan ishlash uslubiyotiga bog'liq. Qiziqarli musiqiy asarning tanlanishi muvaffaqiyatning asosiy va muhim bosqichidir. Tanlangan musiqiy dastur ijrochi bilan bir qatorda tinglovchiga ham manzur bo'lishi kerak.

***Talabaning mustaqil ishi uchun:***

1.Ansambl ishi nechta bosqichga bo'linadi, ularga ta'rif bering?
2. Repetitsiya mashg'ulotlarida talaba yoki o'quvchilarni qanday ko'nikmalarga o'rgatish kerak?
3. Repetitsiya mashg'ulotlarini nimadan boshlash kerak?
4. Ansambl ishtirokchilariga musiqa asarlari tahlilini tanishtirish jarayonida rahbar nimalarga e'tibor berishi lozim ?
5. Musiqiy obrazlar ustida ish olib borganda orkestrdagi sozanda-o'quvchilarni nimaga o'rgatish kerak?
6. Ansambl mashg'ulotlari davrida ansamblning sozandalarini qanday tarbiyalash lozim?
7. Ansamblning ijodiy ishlariga nima muvaffaqiyatli kafolat bo'la oladi?

**Rahbarning vazifalari va ansambl sinfidagi mashg'ulotlar jarayonining psixologik jihatlari.**

Rahbargning professional va shaxsiy fazilatlari ansambl sinfining barcha ijodiy, ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini oldindan belgilab beradi. U har doim sozandalarning o'zaro tashabbuskorligini rivojlantirishga, ularning ijodiy salohiyatini yangi g'oyalarga yo'naltirishga, partiyalarni noodatiy ijro talqinini yaratishga undashi kerak. (Talqin qilish -murakkab ijodiy jarayon natijasidir.)

Rahbarning professionalligi uning ansambl bilan umumiy til topisha olishida, jamoa bilan o'zaro ham fikr bo'lishga erishishda namoyon bo'ladi. G. Erjemskiy ta'kidlaganidek dirijorning aloqa va muloqot jarayonining asosini ijrochilar bilan o'zaro ruhiy aloqalarni o'rnatish, ma'lumotlar almashinuvi, shuningdek o'zaro ta'sir va psixologik ta'sirlar tashkil etadi.[2]

Bu erda rahbar o'qituvchi vazifasini bajaradi, yosh musiqachilarga musiqaning ajoyib dunyosini ochib beradi, u har bir ijrochining fe'l-atvorini bilishi, har doim aqlli, yaxshi va toza kiyingan bo'lishi, axloqiy va kasbiy fazilatlarning o'ziga xos uyg'unligi bilan ajralib turishi kerak. Rahbar pedagogika, psixologiya ta'limotini chuqur biladigan, xalq cholg'u asboblarida chalishni o'rgatish uslubiyotini o'zlashtirgan, yaxshi tashkilotchilik qobiliyatiga ega, nozik did va fe'l-atvorida mutanosiblik hissi mujassam bo'lgan inson bo'lishi kerak.Ta'lim ishlari birinchi navbatda ijrochilarning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Sozandalar o'z partiyalarini to'g'ri ijro etishni o'rganishlari, nota varag'idan yaxshi o'qishlari, dirijyor qo'liga qarab ijro etish ko'nikmalarini egallashlari, har bir ijro guruhining ovozini alohida va butun orkestr ijro ovozini eshitib, ajrata bila olishlar, musiqa madaniyati ko'rsatkichlaridan hisoblanganorkestr umumiy sadolanish muvozanatini saqlay olishlari kerak.

Ansambl jamoasining ta’lim-tarbiyaviy vazifasi – ishtirokchilarni ijodiy jarayonga jalb qilish va ularning ichki dunyosiga, badiiy, estetik va axloqiy rivojlanishiga, didining shakllanishiga ta’sir qilishdir.Musiqiy va ma’rifiy ishlarni bajarishda har xil shakl va usullardan foydalanish zarur. Tarbiyaviy ishning muhim bo’g’inlaridan biri bu - istiqbolli yo’nalish va dirijorning orkestr a’zolariga qo’yadigan talablar tizimidir. Talablar aniq, asosli bo’lishi va bajarilishi kerak.Ansambl uchun tanlangan repertuar insonni tarbiyalashi lozimligini yodda tutish kerak, tanlangan asar ona yurt musiqasiga, xalq ijodiga, o’zbek bastakorlarining asarlariga bo’lgan muhabbatni ifodalashi lozim. Repertuar ijrochilarning professional o’sishiga yo’naltirilgan, ularning dunyo qarashini kengaytirishga, musiqiy rivojlanishiga yordam berishiga hissa qo’shishi kerak. Ansambl rahbari talabalarga ansambl jamoalari va ansambl ijrochiligining eng yaxshi namunalarini tomosha qilishni va tinglashni tashkil qilishi kerak, bu ularga tanishish imkonini beradi.

Ansambl asosiy maqsadi – bastakor niyati, ishonchli ifodasi, musiqa asarining badiiy qiyofasini yaratishdir. Asar ustida ishlash dastlabki tanishishdan boshlanadi va konsert tomoshasi bilan yakunlanadi. Rahbar o’z ishida asar tarkibini, shakli va asarning boshqa xususiyatlarini, texnikasi, irodasi, hissiyotlarini tahlil qilib chiqadi va natijada badiiy obraz yaratiladi. Obrazning ifodali va hissiy jihatini mazmunan tushunib yetish uchun o’quvchilarga musiqa maktabi davrida singdirilishi kerak.

Birinchi navbatda rahbarda - eshitish qobiliyati – ijrochilik va pedagogik jihatlari yaxlit birlashtirilishi kerak. Rahbar ko’ra olishi va eshitishi, tezkor sezuvchanlikga ega bo’lishi va jur’atli bo’lishi kerak. Kompozitsiya san’ati, cholg’u asboblarning mohiyati va hajmini bilishi zarur, agarda u o’z hissiyotini, irodansamasini a’zolariga yetkazish qobiliyatidan mahrum bo’lsa, u holda u rahbar sifatida o’z ta’sirini butunlay yo’qotadi. Rahbarning ansambl bo’lgan hissiy va irodaviy ta’siri ijrochilarga ilhom berishi, ularni ruhlantirishi lozim. Agar anasambl rahbari sozandalar bilan professional va psixologik aloqaning to’g’ri mutanosibligini topa olsa, u ansambl asarini o’zlashtirish bosqichida asosiy badiiy g’oyalarini o’zlashtirgan va eng muhim vazifalardan birini hal qilgan bo’ladi.

---

[2]Erjemskiy G. Dirijyorlik psixologiyasi. muloqot va kommunikativ jarayonlari.VI bob, 1988.43b

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Ansambl professional va shaxsiy xususiyatlari nimani belgilab beradi?
2. Ansambl o’quv mashg’ulotlari nimaga yo’naltirilgan bo’lishi lozim?
3. Ansambl repertuarini tanlashda nimalarni inobatga olish kerak?
4. Ansambl rahbari professionalligi nima yorqin ifoda etadi?
5. Musiqa asari ustida ishlash nimadan boshlanadi?
6. Ansamblr uchun dastur tanlashda rahbar nimalarga e’tibor brishi kerak?
7. Ansambl musiqiy ta’limni amalga oshirishda nima majburiy shartlardan biri hisoblanadi?

## Ansambl sinfida tashkiliy ishlar

Ansambl - yaxlit, jonli organizm singaridir, sozanda unda professional-kasbiy xususiyatlarni egallabgina qolmay, balki vatanga bo'lgan muhabbat, va insonparvarlik, umumiy harakatlanishga bo'lgan javobgarlik hissi kabi hislatlarni ham o'zlashtiradi. Ansambl jamoasida sozanda mehnat tartib-intizomiga o'rganadi.

Ansambl jamoasi to'laqonli harakatlanishi uchun uning tarkibida ishchi guruhlarni: orkestr jamoasi hurmatiga sazovor bo'lgan, javobgarlikni his eta oladigan orkestr sardorini tayinlash kerakAnsambl jamoasi sardori mashg'ulot jarayonida tartib-intizomni nazorat qilishi, ishtirokchilarning davomatini qayd etib borishi, ishtirokchilarning kelib-ketishini ta'minlashi lozim. Sozandalarning orkestr mashg'ulotlarga o'z vaqtida kechikmasdan kelishini nazorat qilishi kerak. Kechikib keladigan qatnashchi-sozanda orkestr mashg'ulotlariga xalaqit berib, o'z navbatida ijodiy muhitni chalg'itadi.

Ansambl sinfida barcha ijobiy hislatlarga ega bo'lgan, ilg'or o'quvchilardan kutubxonachi saylanish kerak. Kutubxonachining majburiyati mashg'ulot va konsert vaqtlarida orkestr partiyalarini tarqatish va yig'ib olishdan, nota materiallarini saqlashdan iboratdir. Ansambl sadosi sofligi uchun odatda, oldingi qatorda o'tirgan kamonli yoki mizrobli guruh sozandalari jo'rnavoz vazifasini bajaradilar.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1.Jamoa bo'lib ishlash jarayoni orqali orkestr qatnashchilarida qanday xususiyatlar shakllanadi?
2.Ansamblr jamoasi ishchi guruhi qanday vazifani bajaradi?
3.Ansambl sardorining vazifasi nimadan iborat?
4.Ansambl kutubxonachisining vazifasi nimadan iborat?
5. Birinchi pultlar ortida o'tirgan orkestr sozandalari qanday vazifalarni bajaradi?
6.Ansambl mashg'ulotiga nima uchun kechikib kelish mumkin emas?

## Xalq chog'ulari ansamblni sozlash

Ohangdoshlik sofligi, vertikal va gorizontal bo'ylab tovushlar muvozanatini uyg'unlashtirmoq, sof ansambl hamohangligiga erishish asosiy masalalardan biridir. (Misol tariqasida: tajribali rahbar onang yallanishini mogirona boshqarib, tovushlarni balandlatgan kolda yoki paslatuvchi tinglovchilar diat-etiborini tortadi).

O'zbek xalq cholg'ulari ansambl sozi ijrochi-sozandaning eshitish qobiliyatiga bog'liqdir. Buning asl mohiyati shundaki, torli-urma, chertma va mizrobli cholg'ular mustahkam temperatsiyalangan guruhlar tarkibiga kiradi. Erkin ohang soziga ega

bo’lgan puflama va kamonli cholg’ular sozlanish vaqtida yuqoridagi guruh cholg’ulari soziga qarab sozlanadilar. Ansambl sozlanishi uchun kamerton asosida sozlangan pianino yoki akkordeon cholg’usi qo’llaniladi. Dastlabki sozlanish barcha cholg’ularni birinchi oktavadagi “lya” tovushi asosida sof unisonga sozlash bilan boshlanadi, so’ngra bosqichma-bosqich ansamblning har bir guruhi sozlanadi. Cholg’uni sozlashdan avval uni xona haroratida ma’lum bir muddat saqlab turish lozim.

Ansambl rahbarining asosiy vazifasi temperatsiyalangan cholg’u sozlari va muallaq ohangdoshlikga ega bo’lgan puflama va kamonli cholg’ular sozini bir-biriga yaqinlashtirishdir. Melodik va garmonik kvarta va kvinta intervallarini eshita bilish lozim. Chertma-mizrobli cholg’ularni sozlashdan avval qopqoq xarraklarining to’g’ri joylashganligini tekshirish kerak. Menzura ya’ni, 12 pardali torning ishchi qismi ikki qismga bo’linib, asosiy tovushdan yuqori bo’lgan oktavada toza tovush chiqarishi kerak.

Agarda xarrak to’g’ri o’rnatilgan bo’lsa, uni 12-chi pardada torning flajolet (ya’ni, qo’l ohista tegganda chiqadigan mayin tovush), ochiq tovushga solishtirib, tekshirib ko’rish kerak. Rezonator tirqishidan siljitilgan xarrak torning ochiq tovush cho’qqisini to’g’rilab beradi

Chang cholg’usini sozlanishi haqidagi ma’lumotni A.I.Petrosyantsning “Cholg’ushunoslik” o’quv qo’llanmasidan olish mumkin. [3]

Har bir cholg’uning astoydil sozlanishidan so’ng butun ansamblning sof tovushqatorini tekshirib ko’rish kerak. Mashq usuli o’z ichiga major va minor gammalarini oladi. Ansambl ijrochilariga tanish bo’lgan biror bir musiqiy asar parchasini ham ijro etib ko’rish kerak. Ish jarayoni, repetitsiya, asar ustida ishlash jarayonida ham muntazam oktava, kvinta, unison doirasida tovush sofligini tekshirib turish lozim.

Ansamblning dastlabki mashg’ulotlarida sozandalarga tovush nosozligiga yo’l qo’yib bo’lmaydigan odatni singdirishi kerak. Har bir sozanda o’z cholg’usining o’ziga xos xususiyat va imkoniyatlarini bilishi, tinglashi, tovushni nazorat qilishi, cholg’ularni va butun ansambl sadolanishini eshita olishi lozim.

---

[3]Petrosyants A.Cholgushunoslik.(O’zbek xalq cholgulri)1990.T.,3-5 b.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Ansambl ohangdoshligiga erishishning qanday muhim masalalari bor?
2. Ansamblni sozlash qaysi muhim omillarga bog’liq?
3.Ansambl rahbari dastlabki mashg’ulotlarda ansambl qatnashchilarini nimalarga odatlantirishi kerak?
4. Mizrobli va chertma cholg’ularning ochiq torlari toni balandligini nima to’g’rilab beradi?

5. Torli-chertma cholg‘ularni sozlashdan avval nimani ko‘zdan kechirish lozim?
6.Ansambl mashg‘ulotlari qanday mashqlarni bajarishdan boshlanadi?
7. O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli sozlanishi nimalarga bog‘liq?

## Gamma - ijrochilik mahoratining poydevori

Turli xil texnik va ifodali vositalarni o’zlashtirish uchun faqat asarlarni o’rganish va ijro etishning o’zi kifoya qilmaydi. O’quvchilar va talabalar gamma ustida ishlash ijrochilik mahoratini egallash uchun zarur material, barcha registrlarda dinamik va tovush tusi rang-barangligi va go’zalligining bitmas-tuganmas manbai ekanligini tushunishlari kerak. Xalq cholg’u asboblarida o’qitish jarayonida o’quv materiali ustida ishlash muhim o’rinlardan birini egallaydi.

Xalq cholg’u asboblarining ijrosi amaliyotidan ma’lumki, gammalar va arpedjiolar ijrosida uchraydigan kamchiliklardan biri, bular – usulni bir tekisda ushlamaslik, ravon sadoning yo’qligi, ijro mahalida ohangni sezmaslik, barmoqlarning joylashish tartib-usuliga rioya qilmaslik va ifodasiz ijrodir. Major va minor gammalari,uchtovushlik va D7 aylanmalarini kvarta-kvinta doirasi bo’ylab va xromatik gammalarni ijro etish zarur.

Ansambl rahbarining uslubiyotidan kelib chiqib, gammalarni ijro etishning turli xil usullari mavjud, ularni legato va stakkato uslubida, turli xil ritmik shakllarda va nota cho’zimlarida (butun va o’n oltitalik notalar) va turli xil dinamik tuslar bilan ijro etish kerak.[7] Tovush izchilligi ***pp*** dan ***ff*** tusigacha bo’lishi kerak. Baland tovushni ijro qilish past va yumshoq ijrodan ko’ra doim osonroq. O’quv ansambllari ***mp***, ***mf*** dinamik tuslari doirasida ijro etish ko’nikmasiga egadirlar. Professional ansambl ijrochilik madaniyatini ifodali ***pp*** dinamik tusiga erishganlik mahorati bilan farqlash mumkin.

Talabalarga gamma mashqlarining mohiyati va afzalliklarini tushuntirish kerak. Gammada ishlash, ularni kichik va yirik hajmdagi asar ijrosi misollarida amaliy qo’llash va bu asarlarda ko’pincha turli xil gamma va arpedjio elementlarining birikmasi uchrashi mumkinligini ularga ta’kidlash joiz. [4]

Jamoa rahbari repetitsiya mashg’ulotlari boshida gammalarni turli xil shtrixlar asosida, unison bo’yicha, tertsiya bo’ylab va uchovozli qilib ijro ettirishi kerak. Bu sozandalarga orkestr sozi va ijrochilik ansamblini tartibga solishga yordam beradi.[5]

---

[4]Mashhur pedagog va pianinochi G. Neygauzning hikmatli iborasiga ko’ra: “Yaxshi ishlay oladigan pianinochi etyud asarini badiiy asarga, yaxshi ishlay olmaydigan pianinochi esa musiqa asarini etyudga aylantiradi”. G. Neygauz Об искусстве фортепианной игры М.,1987.бет 63.

[5]Masalan: Es – dur gammasini o'rganayotganingiz –yarim tayyor mahsulot, agarda uni ijro etsangiz Betxovenning 5- kontserti- tayyor mahsulotdir. Neygauz G. Об искусстве фортепианной игры M.,1987.c.129.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Gamma ijrosida eng ko'p uchraydigan kamchiliklar qaysilar?
2. Gammani jro etishda qanday usullar mavjud?
3. Dinamika (tovush) orkestrda qanday rol o'ynaydi va orkestr ijrochilik madaniyati qanday aniqlanadi?
4. Yo'naltiruvchi material ustida qanday ishlash lozim?
5. Ansambl mashg'ulotlari avvalida qanday mashqlar ustida ishlash kerak?
6. Qanday mashqlar ustida ishlash dinamika va tembr xilma-xilligining bitmas-tuganmas manbaidir.

## Artikulyatsiya

Artikulyatsiya (lot. - mayda bo'laklarga bo'laman) - Musiqa cholg'ularida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari.

Xalq cholg'ulari har bir o'ziga xos musiqiy shtrixlari mavjud: torlili-zarbli, chertmalarda - tremolo, stakkato, legato.

Puflama cholg'ularda - nay, nay-pikkolo – legato, non legato, legatissimo, stakkato, ikkitali va uchtali stakkato, frulato; asosiy tovushqator tovushlaridagi trellar, glissando yarim ton tepaga va pastga.

Torli-zarbli sozlari - stakkato, tremolo, pizzicato (tayoqchalarning qarama-qarshi tomoni bilan torlarni chertish, ba'zan barmoqlarda ham bajariladi) glissandoning turli ko'rinishlari ishlatiladi.

Chertma sozlar (mizrobli va dutorlar oilasi) – tovush chiqarish **п –** zarb pastga; **v-** zarb tepaga, jaranglatish - mediatorsiz barmoqlar yordamida zarb berish va pizzicato. Quyidagi shtrixlar ijro etiladi: stakkato, legato. Yaxshi o'zlashtirilgan legato shtrixi musiqiy jumlalarni va iboralarni chiroyli ohangdorli bo'lishiga xizmat qiladi. Yaxshi tremolo – torda pastga - tepaga ijro etish sozandadan o'ng qo'l panjasining to'xtovsiz harakatlanishini va bir maromdagi zarblarni talab qiladi. Ba'zan shunday hollar ham uchraydi-ki, ijrochining mediator zarbasi pastga qattiqroq, tepaga kuchsizroq ya'ni har-xil bo'lganligi natijasida tremolo notekis chiqadi. Bir maromdagi to'g'ri va chiroyli tremolaga erishish uchun doimiy ravishda turli xil gamma va mashqlarni bajarish zarur. Pedagog ijrochilarda **п** v **п** v **п** v , pastga - tepaga qo'l panjasi harakati birligini nazorat qilishi kerakMusiqiy chizgilarga boy bu kamonli cholg'ulardir: detashe (fr. "**detacher**" - ajratish) kamonni turli yo'nalishda yo'naltirish, sonfile (fr. "**sonfile**"–uzaytirilgan tovush), martele ( ital. "**martele**") - zarb bilan, tovush natijasiga ko'ra markato shtrixiga yaqin. Spikkato (ot ital. "**spiccato**"-uzmoq, torga kamon bilan urganda chiqadigan

tovush, bunda tovush qisqa va bo'linib yangraydi. Sakratuvchi shtrix, rikoshet "**ricoshet**" kamon torga urilib sakrab yana o'z joyiga qaytib kelganida chiqadigan tovush. **Non legato** – ulamasdan, **tenuto** (ital. "**tenere**" – ushlab turmoq) nota cho'zimi aniqligiga qarab ushlab turish, markato – (ital. "**marcare**" ajratmoq) tenutodan farqli o'laroq har bir tovushga urg'u berilishi, **portato** ( ital. "**portare**" – ta'kidlamoq) legatoga o'xshash faqat tovush hujumi faolligi bilan ajaralib turadi, va nihoyat , **vibrato** ( ital. **"vibrato"** – tebratmoq) – qo'shiq yoki musiqiy tovush tusining vaqti-vaqti bilan o'zgarishi. **Vibrato** – torli-kamonli cholg'ularda ifodali ijro etishning muhim usulidir. Vibratsiya - ( tor pardasiga chap qo'l barmoqlarini tekkizib tebratish, tovushga ohangdorlik beradi) - asosan beixtiyor ravishda ro'y beradi, ba'zan beixtiyor sezgirlik ila kayfiyat va his-tuyg'ular asosida ijro etiladi. Vibratsiya - tovushni tebratish usulini aksariyat ko'p o'quvchilar mustaqil bajara olmaydilar, rahbar tomonidan o'z vaqtida ko'rsatilgan yordam vibratsiya mashqini o'zlashtirish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Pedagog-rahbar sozandalarda musiqada badiiy ohangdorlikni ifodalaydigan vibrato, ya'ni tebratish mashqini to'g'ri o'zlashtirishlarini doimiy ravishda nazorat qilishi kerak. "Vibratsiya" - tovushni tebratish musiqiy asarning yaratilgan davri, tovush tuslari va jumlalariga qarab o'ziga xoslikni talab etadi. Turli-xil musiqiy jumlalarda "vibratsiya"-tovushni tebratishning harakat tezligi orttirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Bunday paytlarda, sozanda me'yorni sezishi va ortiqcha harakat musiqiy asarni qarama-qarshi tomonga o'zgartirib yuborishini his eta olishi kerak. Musiqiy asarni tinglayotgan tinglovchi "vibratsiya" haqida tus hunchaga ega bo'lmasa-da, musiqaning keskin o'zgarganligini tushunib yeta oladi."**Pizzicato**", "**arco**" va "**vibrato**"musiqiy chizgi sifatida tafsinlanmay balki usul sifatida qo'llaniladi. Bayan va akkordeon cholg'ularining musiqiy chizgilari kamonli cholg'ular chizgilaridan farq qilmaydi. Ular artikulyatsiyaning muhim qismi hisoblanadi."Pizzicato" va "arco" zarba (shtrix) sifatida emas, balki ovoz hosil qilish usuli sifatida tasniflanadi. Bayan va akkordeondagi zarblar (shtrixlar) kamonli cholg'ularning zarblaridan (shtrixlaridan) deyarli farq qilmaydi. Ular shuningdek, artikulyatsiyaning ham eng muhim qismidir. F. Lips o'zining "Bayanda ijro qilish san'ati" kitobida, bayanda tovush chiqarish uslublari haqida yozadi va ijrochilik amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan ikkita usulni qayd etadi: barmoq, parda va barmoq artikulyatsiyasi. Oxirgi usulning yordami bilan ijroning ifodali tomoni kuchaytiriladi.[6]

[6]F. Lips - Bayanda ijro qilish san'ati. M. 1985.14b

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Shtrix - bu nima?
2. Xalq cholg'ulari puflama guruhida qanday shtrixlar qo'llaniladi?
3. Mizrobli va chertma cholg'u guruhlarida qanday asosiy shtrixlar mavjud?

4. Kamonli cholg’ular qo’llaydigan asosiy shtrixlarni ifodalab bering.
5. Vibrato - bu nima?
6. Ravon va chiroyli “ tremolo” ga erishish uchun nima qilish kerak?
7. Kuyning muhim o‘rinlarini ifodalashda kerakli bo‘lgan “tremolo” ga erishish uchun o‘ng qo‘l panjasi qanday ishlashi lozim?

## Notani varaqdan o’qish

Notani varaqdan o’qish-bu asar matnini o’z tempida va xarakterida oldindan ijro etmagan holda ijro etish demakdir. Har bir musiqachi notani varaqdan o’qishi, yangi musiqiy matnni o’z sur’atida, badiiy to’liqligi va iloji bo’lsa, muallifning barcha ko’rsatmalari bilan ijro etish qobiliyatiga intilishi kerak. Bu jarayonda mashq paytida to’plangan tajriba muhim rol o’ynaydi. Musiqachi - pedagoglar musiqani o’z sur’atida va to’xtamasdan ijro etish uchun notaga qarab chalish ko’nikmalarini rivojlantirishni tavsiya qiladilar. Barcha tajribali musiqachilar notani varaqdan o’qish qobiliyatini rivojlantirishda oddiydan tortib murakkablilik darajasiga o’tish kerak degan fikrni ta’kidlaydilar.

Asarni o’z tempida notaga qarab chalish qulayligiga erishish uchun matndagi xatolarga qaramay har bir o’quvchi yoki talaba oddiy musiqiy asarni jumlalarini to’xtamasdan va uchraydigan matn xatolariga ahamiyat bermay imkon qadar tezroq chalishi kerak. Orkestr sinfidagi musiqiy materiallarni notaga qarab chalish jarayonida talabalar musiqiy nutqning boshqa elementlari-davomiyligi, hajmi, zarbalari, pauzalari, nyuanslarini o’rganadilar. Kuyni individual tovushlar bilan emas, balki to’liq musiqiy jumlalar bilan ijro etishga orkestr a’zolarini jalb qilish kerak. O’quvchini notaga qarab yangi musiqiy matnni o’qishda va tahlil qilishda bir-biriga nisbati bo’yicha teng usul shakllarini har tomonlama qamrab olish qobiliyatiga o’rgatish kerak.

Nota matnining tahlili muhim rol o’ynaydi. Musiqiy matnni tahlil qilish notani varaqdan o’qishda muhim omil bo’lib, u talabada boshlang’ich nazariya, tovushlar uyg’unligi, musiqiy asarlarni tahlil qilish, ya’ni musiqiy nazariy fikrlashni faollashtiradi. Orkestr ijrochisi notani varaqdan o’qishning eng muhim tamoyillarini o’rgangandan so’ng, orkestr ijrochisidan yangi musiqiy matnni dastlabki tahlillarsiz ijro etishini talab qilish, talabalar oldiga turli xil vazifalarni qo’yishni talab qilish, masalan, musiqiy matnni sekin sur’atlarda ijro etishni talab qilish foydalidir, muallifning barcha ko’rsatmalariga rioya qilgan holda, ushbu uslub musiqiy materialda tezkor harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi, ichki eshitish va sezish qobiliyatini yaxshilaydi. Notalarni guruhlarga ajratish butun guruhlarni qamrab olishga yordam beradi, ligalarning aniq ifodasi tovush qatorning to’liqligini ko’rsatadi, interval va

akkordlar alohida tovushlarni emas, balki butun notalar yaxlitligini namoyon etadi va idrok etishga yordam beradi.[7]

Notani varaqdan mukammal o'qilishi musiqiy matnni tahlil qilish, yangi qismlarni tahlil qilish uchun vaqtni tejashni anglatadi. Talabalarga musiqiy material tuzilmasini soddalashtirishni o'rgatish kerak, shu bilan asarning ohangdorligi va garmonik asoslari saqlanib qolinishi kerak (ammo, faqat yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ijrochi musiqiy tuzilmani soddalashtirishi mumkin).

Ushbu san'atni mukammal darajada o'zlashtirgan o'tmishdagi buyuk musiqachilardan biri A. Rubinshteyn tushunarsiz yozilgan musiqa qo'lyozmalarini birinchi martadan, xuddi avvaldan tayyorlagan kabi ijro etgan. Notani varaqdan o'qib ijro eta olish qobiliyatiga S. Rixter va I. Gofmanlar ham ega bo'lganlar. Bundan tashqari, musiqiy matnni tushunish tezligi, asosan, orkestr sozandasining individual xususiyatlariga bog'liq va shu bilan birga, nota musiqasini nota varag'idan o'qishning asosiy tajribasi o'qituvchi tomonidan o'z ixtisosligi darslarida yaratiladi – bu esa muhimdir! O'quvchingizda notani varaqdan o'qish ko'nikmalarini shakllantiring va buni

[7]Shaxov G. Eshitib ijro orqali chalish, varaqdan o'qish, transport (ko'chirish) qilish.1987. 68b

***Talabaning mustaqil ishi uchun:***

1. Notani varaqdan o'qish va nota matni tahlili qanday vazifani bajaradi?
2. Talabalarni nimaga erishtirmoq muhimdir?
3. Nota matnining bayonoti nimaga bog'liq?
4. Matnda notalarning guruhlanishi nimalarga yordam beradi va imkon tug'diradi?
5. Notani varaqdan o'qishning qanday afzallik tomonlari bor?
6. Musiqiy materialning shakli soddalashtirilganda nima saqlanib qolishi kerak?
7. Notani varaqdan mahorat bilan o'qib, ijro eta olgan buyuk ijrochi-ustalarni sanab o'ting?

**Ijrochilik ansambli ustida ishlash**

Ansambl bilan ishlash jarayonida rahbar nafaqat ijroni boshqarishi balki barcha orkestr tarkibining to'g'ri sadolanishini ham nazorat qilishi kerak.

Guruhlar aro ijrochilik ansambli ustida ishlash - asar ijrosi sifatini ta'minlab beruvchi ma'suliyatli ishlardan biridir. Ansamblning cholg'ularda ijro uslubining mukammalligiga erishishi uchun pedagog tomonidan berilgan topshiriqlar ham muhim rol o'ynaydi. Ansambl guruhlari partiyasini ijro etishda boshqa ijrochilarni ham eshita bila olish orqali ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmasi shakllanadi. Mashg'ulot jarayoni vaqtida ijrochilik ansambli mukammaligiga erishish uchun rad etib

bo’lmaydigan ijrochilik texnikasidagi musiqiy jumla va iboralar, metroritm, agogika, musiqiy chizgilar, artikulyatsiya va dinamik tuslar ansambl yaxlitligining asosidir. Repetitsiya jarayon+ida asar sur’ati ustida ishlash muhim bosqichlardan biridir.

Asar sur’atini aniqlash ijrochilik san’atida muhim jarayon hisoblanadi. G. Neygauzning ifodasi bo’yicha: asar sur’atining ijrodagi to’g’ri tanlanganligi asar xarakterini aniq ifodalab beradi, noto’g’ri tanlangan sur’at esa asar xarakterini buzib ko’rsatadi.

Ba’zan musiqiy asarlarda muallif tomonidan sur’at ko’rsatilgan bo’lsada, olingan tajribalar shuni taqozo etadiki, sur’at musiqiy asarning zamirida joylashgan bo’ladi.

N.Rimskiy-Korsakov ta’kidlaganidek: “Sur’atlarning metronomik belgilari musiqachi bo’lmagan dirijorlar uchun o’rnatiladi va musiqachi dirijorga esa metronom kerak emas, u sur’atni musiqadan eshitadi”[8]

I.S.Bax esa o’z asarlarida umuman sur’atni ko’rsatmagan.

Xalq cholg’ulari orkestri guruhlari bilan ishlash jarayonida dirijor cholg’uchilarga har bir cholg’uning sadolanish madaniyatini singdira olishi

Rubob-prima, qashqar rubobi, afg’on rubobi, dutor va chang, puflama cholg’ulardan - nay, shu bilan bir qatorda akkordeon cholg’uning xilma-xil tovush tuslarini ajrata bila olishlarini o’rgatishi jamoa rahbarining yana bir vazifasidir. Shu bilan birga, agarda musiqiy asar polifonik shaklda bo’lsa, sozandalarda yakkaxonlar va guruhlar aro bo’ladigan ijroni ichki sezgi bilan his eta olishni takomillashtirish zarur.Bu orkestr partiturasini chuqur o’zlashtirishga xizmat qiladi.

[8]D.D.Blagoy – A.Blagaya, “o’qituvchining rang-barang varaqlaridan”(skripka alifbosi) sur’at haqida bobidan..https//blagoy-blagaya.ru.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Ansambl bo’lib ishlash jarayonida dirijorning vazifalarini ko’rsatib o’ting?
2. Repetitsiya jarayonida qaysi bosqich ma’suliyatli hisbolanadi?
3. Musiqada sur’at qanday vazifani bajaradi?
4. Rahbar ansambl qatnashchilarini nimalarga odatlantirishi lozim?
5. N.A. Rimskiy-Korsakovning musiqiy sur’atlar xaqidagi fikrlari?
6. Ansamblning turli guruhlari bilan ishlashda dirijyor nimalarni nazorat qilishi kerak?
7. Ansambl guruhlari va yakkaxonlari o‘rtasida o‘zaro tezkor yo‘nalishni o‘zgartirishda orkestr rahbari qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim?

## Yakkaxon bilan ishlash

Akkompanement (frantsuzchadan-accompagnement-hamrohlik qilish) asosiy ohangdor ovozni uyg'un va ritmik qo'llab-quvvatlash vazifasini o'taydigan musiqiy asarga jo'r bo'lishdir. Akkompanementning har xil turlariga e'tibor berish juda muhimdir. Akkompanement jo'rligida ishlash o'ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun ushbu xususiyatlarni aniqlab, akkompanementning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi nima ekanligini aniqlash kerak. Akkompanement jo'rligining xarakteri va vazifasi uning yaratilish davri, milliy musiqa va uning uslubiga bog'liq. Har bir musiqachida ansambl hissi, yakkaxonni his qilish qobiliyati, ijro rejasini chuqur o'rganish qobiliyati, ya'niakkompanement mahoratini egallash uchun zarur bo'lgan barcha hislatlar mavjud. Maktab o'quvchilari va talabalar orkestrida musiqaning barcha badiiy materiallari, individual qismlari, epizodlari, tovush tuslari, kichik musiqiy parchalar va kirish qismlari yakkaxon ishtirokisiz tahlil qilinadi va o'rganiladi.

Rahbar birinchi o'ringa qo'yilgan yakkaxon-ijrochi yoki yakkaxon xonanda ijro partiyasini qat'iy o'rganishi shart, mashq paytida u yakkaxon ijrochi, xor yoki xonandaning ijro g'oyasiga va ularning ijodiy tashabbusiga maksimal darajada e'tibor va sezgirlik ko'rsatishi kerak. O'lchov, sur'at, agogika kabi umumiy akkompanement jo'rligi qiyinchiliklarini aniqlay bilishi lozim.

Ansambl akkompanement jo'rligi san'ati haqida gap ketganda, barchasi vaziyatga borib taqaladi. Agar rahbar va yakkaxon sozanda yetarlicha chuqur tushunchaga ega bo'lsa, demak, bu omad. Bunday paytlarda rahbar yakkaxonni tinglashi, va ba'zi joylarda tashabbus ko'rsatishi mumkin.

Yakkaxon xonandalar bilan vaziyat butunlay boshqacha. Qo'shiq aytish inson tanasi uchun qiyin jarayon, ijrochiga xalaqit bermaslik va shu bilan birga uni yo'naltirish muhimdir. Yakkaxon yoki qo'shiqchi va orkestr o'rtasida dinamik muvozanatni o'rnatish juda zarur.

Birinchi o'ringa qo'yilgan xonanda va ijodiy tashabbuskorlikning ish natijasi asarning muvaffaqiyatli ijrosi bilan yakunlanishi kerak. Agar sahnada biron bir nosozlik yuzaga kelsa, siz o'zingizning xatolaringizni to'xtatish yoki tuzatish mumkin emasligini qat'iy unutmasligingiz kerak, bu sizning ko'ngilsizliklaringizni ifodalashi mumkin.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

1. Jo'rnovozning vazifasi va xarakteri nimaga bog'liq?
2. Talabalar va o'quvchilar orkestrida yakkaxon cholg'uchi yoki xonandaning partiyasi qanday o'rganiladi?
3. Yakkaxonlar bilan ishlash jarayonida dirijor qanday qiyinchiliklarni belgilab olishi kerak?
4. Konsert jarayonida kutilmagan tasodiflarda dirijor o'zini qanday tutishi kerak?
5. «Akkompanement» iborasini ifodalab bering?

6. Yakkaxonsiz bo‘lgan asar ustida ishlashni qanday tashkillashtirish kerak?
7. Ansambl rahbari va yakkaxon–xonanda o‘rtasida qanday psixologik aloqalar mavjud?

## Konsert namoyishi

Ansambl sinfining barcha ishlari yakuniy natijaga ya’ni, konsert dasturiga yo’naltirilgan. Konsertlar, o’z navbatida, talabalar orasida badiiylikni, ijodiy intizomni va mas’uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Konsert–bu yakuniy xulosa, bayram, ehtimol yana bir ijrochilik yutug’i, kamolotga erishish bosqichidir. Konsert-bu g’alaba qozonish kerak bo’lgan jangdir.

Konsert namoyishi jamoaning birligini faollashtiradi, musiqiy va hissiy holat darajasini ko’taradi, musiqa ila tinglovchilar bilan muloqot qilish zavqi jarayonidan quvonch hissi paydo qiladi. Yakunlangan konsert – orkestr jamoasining mashshaqatli mehnati samarasidir. Konsert oldidan yakuniy tayyorgarlik mashg’uloti o’tkaziladi va bunda barcha partiyalarning sifatini, shuningdek, barcha ishtirokchilarning psixologik tayyorgarligini tekshirish uchun to’xtamasdan ijro etish tavsiya etiladi. Konsertning muvaffaqiyati, avvalo, tayyorgarlik darajasiga, dirijor va butun jamoaning mahorat darajasiga bog’liq. Shu bilan birga, konsert nafaqat ijodkorlikni, balki tashkiliy va tarbiyaviy tartibning kamchiliklarini ham ochib beradi.

Orkestr rahbarining zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklanadi, u namoyishning barcha qiyinchiliklarini oldindan ko’ra bila olishi, ko’plab tashkiliy masalalarni hal qilishi kerak: cholg’u asboblar mavjudligini, nota qo’yiladigan tirkamalar sonini tekshirishi, ishtirokchilarni tartibga solishi, zal akustikasiga tezda moslashishi va, agar kerak bo’lsa, guruhlarning va butun orkestrning ovozini sozlashi zarur.

Konsertda orkestr rahbari o’ziga ishongan, tasodifiy xatolarga yo’l qo’ygan musiqachilarni qo’llab-quvvatlashga tayyor bo’lgan, ularni tezda tuzatadigan va o’z noroziligini ko’rsatmaydigan bo’lishi kerak.

Ammo jamoa va uning rahbari mukammalligining asosiy sharti–o’zidan bo’lgan doimiy norozilik hissidir. Muvaffaqiyatli konsertdan keyin ham yutuqlar bilan xotirjam bo’lmaslik, ijrodagi muvaffaqiyatlarni va xotirada jo’shqin maqtov so’zlarini eslagan holda xotirjam bo’lmaslik lozim.[9]

Kontsertdan so’ng, ijroni batafsil tahlil qilish, nima muvaffaqiyatli bo’lganini va muvaffaqiyatsizliklar qaerda bo’lganini eslab qolish foydalidir. Har bir kontsertdan keyin musiqachilarga hamroh bo’lishi kerak bo’lgan asosiy holat bu keyingi mashg’ulotlarga intilish, yangi kompozitsiyalarni o’rganish zarurati, yangi marralarni zabt etish istagidir.

Konsert namoyishi jamoaning birligini faollashtiradi, musiqiy va hissiy holat darajasini ko’taradi, musiqa ila tinglovchilar bilan muloqot qilish zavqi jarayonidan quvonch hissi paydo qiladi. Yakunlangan konsert – ansambl jamoasining mashshaqatli mehnati samarasidir. Konsert oldidan yakuniy tayyorgarlik mashg’uloti o’tkaziladi va bunda barcha partiyalarning sifatini, shuningdek, barcha ishtirokchilarning psixologik tayyorgarligini tekshirish uchun to’xtamasdan ijro etish tavsiya etiladi. Konsertning muvaffaqiyati, avvalo, tayyorgarlik darajasiga, dirijor va butun jamoaning mahorat

darajasiga bog’liq. Shu bilan birga, konsert nafaqat ijodkorlikni, balki tashkiliy va tarbiyaviy tartibning kamchiliklarini ham ochib beradi.

Ansambl rahbarining zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklanadi, u namoyishning barcha qiyinchiliklarini oldindan ko’ra bila olishi, ko’plab tashkiliy masalalarni hal qilishi kerak: cholg’u asboblar mavjudligini, nota qo’yiladigan tirkamalar sonini tekshirishi, ishtirokchilarni tartibga solishi, zal akustikasiga tezda moslashishi va, agar kerak bo’lsa, guruhlarning va butun orkestrning ovozini sozlashi zarur.

Konsertda orkestr rahbari o’ziga ishongan, tasodifiy xatolarga yo’l qo’ygan musiqachilarni qo’llab-quvvatlashga tayyor bo’lgan, ularni tezda tuzatadigan va o’z noroziligini ko’rsatmaydigan bo’lishi kerak.

Ammo jamoa va uning rahbari mukammalligining asosiy sharti–o’zidan bo’lgandoimiy norozilik hissidir. Muvaffaqiyatli konsertdan keyin ham yutuqlar bilan xotirjam bo’lmaslik, ijrodagi muvaffaqiyatlarni va xotirada jo’shqin maqtov so’zlarini eslagan holda xotirjam bo’lmaslik lozim.

Kontsertdan so’ng, ijroni batafsil tahlil qilish, nima muvaffaqiyatli bo’lganini va muvaffaqiyatsizliklar qaerda bo’lganini eslab qolish foydalidir. Har bir kontsertdan keyin musiqachilarga hamroh bo’lishi kerak bo’lgan asosiy holat bu keyingi mashg’ulotlarga intilish, yangi kompozitsiyalarni o’rganish zarurati, yangi marralarni zabt etish istagidir.

---

[9]Zemlyanskiy B. Musiqa pedagogikasi to’grisida.M.,1987.35 b.

### *Talabaning mustaqil ishi uchun:*

**1.** Konsert muvaffaqiyati nimaga bog’liq?
**2.** Namoyishdan avval orkestr rahbarining vazifasi nimadan iborat bo’ladi?
**3.** Namoyishdan avval orkestr rahbarining vazifasi nimadan iborat bo’ladi?
**4.** Jamoaning takomillashishida eng asosiy shart nima?
**5.** Rahbarning ansambl dasturini tuzish tartib qanday bo‘lishi lozim?
**6.** Konsertdan so‘ng orkestr jamoasi bilan qanday chora-tadbir o‘tkazish kerak?

### *Talabaning mustaqil ishini tashkillashtirish uchun tavsiyalar*

- Ansambl mashg'ulotlarida o'tgan materialni mustahkamlash
- Asarlarni tahlil qilishda musiqiy matnga diqqat bilan e'tibor berish
- Applikaturani to'g'ri qo’yishni kuzatish va to'g'rilashni o'rganish
- Partiyalarda ko’rsatilgan zarblar (shtrixlar), dinamik o’zgarishlarga rioya qilish
- Har bir partiya ustida sekin sur'atlarda ishlash
- Birinchi navbatda qiyin partiyalarga e'tiborni qaratish

- Ijrochilik apparatining erkinligini, qo'llarning holatini, to'g'ri o'tirishni kuzatibborish
- Tovush sifati, kuyning ifodali ijrosi hamda jo’r ovozlarni kuzatib borish
- Asar ustida, jumlalar ustida bosqichma-bosqich ishlashni bilish
- Texnik qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topishni o'rganish

**Rahbarlar uchun asarlarning qisqacha tavsifa va tavsiyalar:**

Ansambl repertuarida o‘n bitta pyesa bor. Shulardan oltitasi — fortepiano va yakkanavoz uchun pyesalar, qolgan beshta pyesa ansamblning aralash tarkibi uchun.

**1. Yuriy Peshkov. “Karnaval” - Nail Bahadirov cholg’ulashtirgan.** Yuriy Peshkov- pedagog, ijrochi-sozanda, kompozitor – akkordeon cholg’usi uchun ommmaviylashgan, ko’plab asarlar muallifidir. Uning asarlari turli mamlakatlar bo’ylab ijro etilmoqda. “Jahon akkordeon murabbiylari oliy birlashmasining vitse-prezidenti". “Karnaval” pyesasi bayanchi va akkordeonchi sozandalar tomonidan sevib ijro qilinadigan asarlar sirasidandir. Bu asar ijrochisi mohir texnik malakasiga ega bo’lishi kerak. Bu pyesa prima rubob va chang sozlari tomonidan ham ijro etilishi mumkin

**2. N.Baxadirov, B. Fominning “Uchrashuv hayotda bir marta bo’ladi” romansi mavzusiga variatsiyalar.** Boris Ivanovich Fomin 1900-1948 yillarda yashab o‘tgan kompozitor, akkordeonchi, romans janri ustasidir. Ushbu ajoyib romans butun dunyoni kezib, hozirgi kunga qadar ijro qilinib kelayotgan dastlabki romanslardan hisoblanadi. Bu ohangdor va go‘zal romansni kompozitor lo‘li, ayol xonanda Mariya Fyodorovna Masalskayaga bag‘ishlagan. Ammo 1929 yil Leningrad shahrida bo‘lib o‘tgan Butun Rossiya miqyosidagi musiqiy anjumanda ushbu romans inqilobga qarshi qaratilgan deb topilib, ijro qilinishi man etilgan. Shundan so‘ng, B. Fominning ham ijodi unutilib ketdi. Asar qisqacha pianino muqaddimasi bilan boshlanadi. Asar sur’ati asta-sekin tezlashib, variatsiyalarda esa tonalliklar doimiy almashinib turadi. Ijrochi yaxshi texnik qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Temp agogiyasini (tezlanish, sekinlashuvni) kuzatish juda muhim. 2/2 o‘lchovidagi oxirgi variatsiya jadal ijro etilishi kerak, so‘ngra yakuniy qismda asosiy mavzu harakatlanarli sur’atda takrorlanadi. Ijro ifodali, o‘ziga xos tarzda bo‘lishi kerak ...

**3. “Quvnoq kabalyero” (“Pasodobl”), Nail Bahadirov qayta ishlagan.** Italyan kompozitori va akkordeonchisi **Pyetro Frosini** qalamiga mansub. **“Pasodobol”-** noyob, raqsbop asardir. Ispan korridasi, ya’ni Ispaniyadagi buqalar jangi asosida dunyoga kelgan bu raqs er yuzi bo’ylab juda ommalashib ketdi. Ijro etilishi engil, keskin bo’lib, dirijyor orkestr tarkiblari orasidagi o’tkir triollarni va №9 raqam ostidagi modulyatsiyani eshita bilishi zarur. №10 raqam ostidagi juda murakkab va ustalik bilan ijro etilishini talab qiladigan qismini, biror bir notasi yo’qolib qolmaydigan darajada chiroyli ijro etish kerak. Asarning №12,19–raqamlarining takt oldi akkordlarida p’esaning qat’iyatliligi va qudratliligi joylashgan. Pyesa so’nggida qisqagina ritenuto uchraydi. Rahbar asar orqali bu go’zal mamlakatning usul va ohangining rang-barangligini, xalqining quvnoq ruhini aks ettirishi kerak.

**4.Fransisko Tarrega**. **“Kapris Arabeska”**, **Nail Bahadirov qayta ishlagan.** Asarning musiqasi juda ham ajoyib. Kompozitorning vatani bo’lmish Ispaniyada ushbu kompozitor xotirasiga haykal o’rnatilgan. “Arabeska” atamasi arabcha so’zdan olingan

bo’lib, me’morchilik va rassomchilik san’atida arabcha uslubidagi jimjimador bezaklarni anglatadi. “Arabeska” atamasini birinchi bo’lib kompozitor Robert Shuman qo’llagan. Kirish qismida passaj ajoyib tarzda ijro qilinishi kerak. № 3,11 raqamlari ostida uchraydigan, uncha katta bo’lmagan kontrapunkt asosiy mavzu bilan xamohanglashib ketadi. Ansambl rahbari asosan asar qismlari sura’tini aniqlay bilishi, asarning dinamik tuslariga ijodiy yondashishi kerak. № 2,4,6 raqamlarda chiroyli passajlar uchraydi. Yakkaxon bu passajlarni uddaburonlik bilan ijro qilishi zarur. № 11 raqamda orkestr yakunlov qismi keladi. Bu erda ahamiyatli jadallik bilan ijro qilish kerak, kontrapunkt ijro qilayotgan yakkaxon eshita bilish zarur. Asarning so’nggi taktlarida orkestr jo’rligi biroz susayib, akkordeon sozining garmonik shakllari yangraydi va asosiy tonallik akkordiga tushib olib, fermatada yakunlanadi. Bu pyesa g’ijjakchilar va prima rubob, changchilar orasida juda ommalashgan.

**5. Nail Bahadirov. “Intermetsso”.** Bu pyesa 2003 yilda orkestr uchun moslab yozilgan asar bo’lib, so’ngra klavir sifatida yaratildi**.** Asar ikki qismli shaklda yozilgan bo’lib, e-moll tonalligida takrorlanaveradi. Asarning o’rta qismi dominantali h-moll tonalligida. Asarning ladogarmonik rejasi minor –majorli. Bu asarni harakatchan, yengil, jo’shqinlik (moldavancha) bilan ijro qilish kerak. Moldova ladotonallik musiqiy tuzilmasi asosi diatonik, rang-barang bo’lib, orttirilgan 4-bosqich ketma-ket uchrab turadi. “Intermetso” pyesasining melizmatikasi: forshlag, trel, mordent bezaklariga juda ham boy. O’rta qismda jo’rnavozning jumlalarini aniq usulda ijro qilish zarur. Asarda uchraydigan tsezuralarga e’tibor bergan holda ma’lum vaqtga ushlab turish, kuyning lirik ohangiga yanada aniqlik kiritadi. Asar bezaklariga alohida e’tibor bermoq lozim. Bu bezaklar kuyni yanada harakatlantirib, hayajonga soladi. №14 raqamdagi orkestr “tutti” sida afg’on rubob va dutor bas cholg’ulari garmonik shakldagi triollarni ajratib ijro qilishlari kerak bo’ladi. Asar ikkinchi qismi birinchisi singari mahoratli kadentsiyada yakunlanadi. So’ngra yana repriza qaytarilib, unga qo’shilgan 16 taktli ilova pyesaga rivojlov hissini beradi. Bu joyni mamnuniyat bilan mohirona ijroqilish zarur.

**6. Qrim tatar xalq kuyi “K’alayli k’azan” – “Lujyoni’y kazan”. Refat Ibadlaev qayta ishlagan, Nail Bahadirov transkriptsiyasi.** Refat Ibadlaev - mashhur bayanchi- sozanda, mohir va iste’dodli kompozitor. Uning bayan cholg’usi uchun yaratgan asarlari O’zbekistonda va chet ellarda juda ommalashgan. Refat Ibadlaev pesalari bayanchi va akkordeonchi sozandalar o’rtasida bo’lib o’tadigan ko’rik-tanlovlarda ijro qilinadi. Bu pesa engil, his-hayajon bilan ijro qilinishi kerak. Yakkaxon va fortepiano orasidagi dinamik masofani saqlay bila olish zarur. Asarning gis-moll tonalligida polifonik ko’povozlilik mavjud bo’lib uni ilg’ay olish kerak. Sekstol notalarni to’g’ri ijro qilib 1,3 va 5- hissalarga urg’u berish kerak.

**7.“Afg’oncha kuy”. Nail Bahadirov ansambl uchun qayta ishlagan.** Afg’oniston musiqasi o’zining ko’p yillik tarixiga ega. Bu yurtda hanuzgacha folklor musiqasi an’analari saqlanib keladi. “Afg’oniston radiosi” musiqiy tahririyati sharofati bilan birinchi bor professional orkestr jamoalari paydo bo’lmoqda. Bu asar variatsiyali shaklda yozilgan bo’lib, kirish va o’rta kadensiyasiga ega. Asar asosiy mavzusi d-moll tonalligida, so’ngra №11 raqamda boshqa tonallikga og’ishma sodir bo’lib, bir necha bor ijro qilingandan so’ng, g-moll tonalligiga og’ishma bo’ladi. Afg’on rubobi cholg’usi – kichik ansambl uchun mo’ljallangan bo’lib, o’zining mayin tovush tusiga ega. Bu cholg’uda texnik ijro imkoniyatlari mavjud. Afg’on rubobi sozining yoqimli ijrosi asar mazmun-mohiyatiga mos keladi. Doira partiyasi o’ziga xos xususiyatga ega. Rahbar ijro

jarayonida ansambl guruhlari aro tovush muvozanatini kuzatib borishi kerak, jo'rlikdagi yengil stakkato va kerak bo'lganda mizrobli cholg'ularga pissikato qo'shsa ham bo'ladi.Yakkaxon sozanda kirish qismidagi kadentsiyada dinamik reja asosini belgilab olmog'i lozim. Asarning №11 raqami ostidagi tutti qismini legato ya'ni, bir-biriga ulab chalish kerak. Asarning yakunlovchi 4 ta taktini nay sadosi o'zining uchqunli ijrosi bilan yakunlaydi.

**8. Zekinya de Abreu ( Joze Gomesh de Abreu**) "**Tiko-Tiko", N.Bahadirov qayta ishl.** 1880 – 1935 yillarda yashab ijod etgan Braziliyalik kompozitor va musiqachi, pianinochidir. U olti yoshidan fleyta, klarnet va pianino chalishni o'rgangan, 10 yoshida esa o'z orkestrini yaratishga muvaffaq bo'lgan. O'nlab musiqiy asarlar, ko'plab vals va "shoro"lar muallifi. Zamonaviy braziliya qo'shiqlarining dastlabki davridagi eng mashhur mualliflaridan biri. 1917 yilda yozilgan "Tiko-Tiko" cholg'u kuyi unga eng katta shuhrat keltirdi.Ushbu ohang dunyoning barcha mamlakatlarida haligacha sevilib, eslab kelinadi. "Tiko-Tiko" asari dutorchilar ansambli – bas, altchilar dueti va kontrabas dutori uchun qayta ishlangan. Asar jadal, jo'shqin, otash bilan ijro etilishi lozim. Asarda qaytariluvchi reprizadan oldin SH.Umarovning dutor tenor uchun yozilgan "Sharqona raqs" o'zbek pyesasidan 4 taktli musiqa taqdim etilgan. Aranjirovka muallifining so'zlariga ko'ra, 4 taktli musiqa ushbu go'zal mamlakatning rumba milliy lazzatini uyg'otadi va Z.Abreuning mashhur xitining qadr-qimmatini umuman tushirmaydi.

**9. N.Bahadirov qayta ishlagan bolgar xalq kuyi "Petrich xorasi " .** Bolgar musiqasi Evropa jahon madaniyatining bir qismidir. Asar o'ziga xosdir. U tipik bolgar metro-ritmi va lad-tonal ohangiga ega. Asarda ommaviy halq raqsi elementlari ustunlik qiladi, ular murakkab ritmometrik naqshga ega bo'lib, 5/8,7/8,8/8,9/8,10/16 o'lchovlariga egadir. Raqsning eng mashhur turlari xoro (xorovod raqs) bo'lib, ushbu raqs turi butun mamlakat bo'ylab ommalashgan. Xoro - ommaviy raqs, xorovod raqsining bir turidir. Raqs ijrochilari bir-birlarining qo'llaridan, bellaridan ushlab yoki qo'llarini bir-birlarining elkasiga qo'yib raqsga tushadilar. Raqs o'tkir, chayqaladigan harakatlar bilan ajralib turadi. "Petrichskoe xoro" pesasini jo'shqinlik usulida, otash bilan, kuchli zarbalarni ta'kidlab ijro qilish kerak. Petrich-Bolgariyadagi shahardir.

**10. Iogann Sebastyan Bax "Prelyudiya va fuga" c-moll, (YTK,1jild).** Asar kompozitsiyasi qiyosiy, prelyudiyada dramatik va fugada raqs obrazlar asosida qurilgan. Prelyudiyada gomofonik xususiyatga ega bo'lgan debocha polifonik shakllarga xos bo'lgan taqdimot usullarini bir-biriga bog'lab turadi. Musiqiy tuzilmaning garmonik boyligi, qiyishuvchan ritm mavzuga mardonavorlik baxsh etadi. Mavzu bilan to'liq birlikda umumiy dinamikani rag'batlantiradigan qarama-qarshiliklar va intermediyalar mavjud.Urg'ularning bir xil taqsimlangan fuga mavzusining metroritmik formulasi (uch ovozli fuga) uning raqsdan kelib chiqishi haqida gapiradi. Rivojlanish jarayonida butun tovush mavzuning ichki mazmuniga qarab o'zgarishlarga uchraydi. Fuga cho'qqisidagi Es-dur tonalligida bo'lgan o'rta qismdagi mavzu a'lo darajada yangraydi. Fuganing barcha ovozlari minor tovushqatori shaklida zich boyligi bilan uzluksiz uyg'unlashadi.

**11. Iogann Sebastyan Bax . "Prelyudiya va fuga" e-moll, (YTK,Ijild) -**
e-moll prelyudiyasi c-moll prelyudiyasi kabi lirik va dramatik tuzilishdagi qiyoslash ko'rinishga ega.Ushbu e-moll prellyudiyasida foydalanilgan gomofonik tuzilma xususiyatlari orqali prelyudiyaning ikki xil qismlari o'rtasidagi keskinlik tobora rivojlanib ma'lum bir musiqiy emosional portlash bilan tabiiy holda allargando ya'ni,

musiqiy asar sur’atining tobora sekinlashish va har bir tovushga ifodali urg’u berilishiga o’tib, aynan shu xarakterga ega bo’lgan fugaga ulanib ketiladi.
**fuga** -variatsion - ikki qismli tuzilish, ikkita teng uzunlikdagi (har biri 19 taktdan) qismga va 4 taktli kodaga bo'linadi. Ikkinchi qism birinchisining deyarli aniq transpozitsiyasi bo'lib, ikki oktava kontrapunktida tovushlarni qayta tartiblash bilan.Birinchi 9 takt subdominant yo'nalishda transpozitsiya qilinadi: e-moll - a-moll, h-moll-e-moll. Qolgan 10 ta takt transpozitsiya qilingan minor dominanta G-dur-D-dur yo'nalishi bo'yicha d-moll va a-moll ga to'g'ri keladi. Ikkinchi qism asosiy kalit bilan tugaydi.Yaxshi temperatsiyalangan soz siklida bu yagona ikki ovozli fuga.

## *Xulosa*

Muallif ushbu o’quv qo’llanmada Guliston davlat universiteti “An’anaviy xonandalik va xalq cholgulari” yo’nalishining bakalavriat bosqichi talabalari ansambli vakillari o’rtasidagi faoliyatni umumlashtirishga harakat qilgan va “Ansambl sinfi" fanini o’qitish uslubiyoti va amaliyotning bosqichlari ko’rib chiqilgan.Qo’llanmani yaratishdagi bunday yondashuvga muallifning ansambllaridagi ko’p ish tajribasi, ikkinchi tomondan xozirgi kunda “Ansambl sinfi” fani shakllanish bosqichida bo’lgan, Guliston davlat ochilgan xalq cholgulari bakalavriat yaoa turtki bo’ldi.Muallif o’quvchilarning ansamblda ishtirok etishi ularning ma’naviy-ruhiy taraqqiyotiga naqadar ijobiy ta’sir ko’rsatishi, jamoaviy ijrolar, konsert faoliyati, tomoshabinlar oldidagi chiqishlar, olqishlar ham o’quvchilarning ichki dunyosi va dunyoqarashiga ijobiy, hissiy ta’sir universiteti qoshida o’quvchilaridan tashkil topgan ko’ rsatishiga ko’p marta guvoh bo’lgan. Musiqa tufayli o’sib kelayotgan yosh avlod aqlli, mehribon bo’lib, ichki dunyosi boyib boraveradi. Musi’qa tufayli o’quvchiar atrofdagilarga go’zallik va yaxshilik keltiradilar zero, san’atning asosi – ezgulikdir!

## Класс ансамбля (введение)

Пути развития музыкальных культур различных регионов нашей планеты весьма разнообразны. Человечество живѐт в такое время,когда имеется возможность наблюдать одновременно существование различных стадий культурной эволюции у различных народов.Вся история мировой цивилизации доказывает, что общаясь, взаимодействуя друг с другом,влияя друг на друга в различных сферах человеческой деятельности, люди развивают свои лучшие традиции, способствуя расцвету культуры. В различные исторические эпохи, в силу тех или иных социально- экономических условий, эстафета культурного развития передавалась то Востоку, то Западу. «Преемственность лучших достижений художественного опыта прошлого – вне зависимости от политических и географических границ, от различия быта, уклада жизни и проч.- один из важнейших факторов развития мировой культуры» - говорил Т.С.Вызго.

. Полноценная подготовка музыкантов невозможна без практики ансамблевого музыцирования,которая сплачивает и организует инструментальное искусство и является обязательным развитием музыкального мышления и интереса студентов к занятиям. Игра в ансамбле обладает большим развивающим потенциалом всего комплекса способностей участников ансамбля: ритма,памяти, музыкального слуха,расширяется музыкальный кругозор, развиваются творческие способности, формируется художественный вкус.Работа в ансамбле снимает скованность,ускоряет процесс овладения навыками публичных выступлений. Концертная деятельность ансамблей необходима для популяризации народного искусства. В.В.Андреев говорил: «Основой народного инструментального искусства исполнительства является коллективность, и наиболее для этой цели является коллективное занятие музыкой на народных инструментах».

Современная культура инструментализма узбекского народа сложилась в недрах монодического искусства и уже в эпоху среднеазиатской античности представляла собой сложное и разностороннее явление, созданное усилиями многих народов.

В результате практического осуществления принципов темперации и хроматизации, введения письменной традиции, стандартизации строя, формирования репертуара в Узбекистане, появилась новая форма музицирования – многоголосное коллективное исполнительство на национальных инструментах, оно стало самостоятельным художественным явлением, соединяющим нас с мировой музыкальной культурой

Начало XX столетия связано с активизацией исполнительства на народных инструментах в Узбекистане. Уже в первое десятилетие были достигнуты заметные успехи в области музыкального образования, фольклористики, исполнительского искусства. Ансамбли народных инструментов создавались в Фергане, Коканде, Андижане, Самарканде. Ими руководили известные инструменталисты: Усто Олим Камилов, Тохтасин Джалилов, Ахмаджан Умурзаков, Юсуф – Кызык Шакарджанов, Усто Рузимат Исабаев, Матъюсуф Харратов, Усто Тайир, Маъруфжон Ташпулатов, Мухитдин Мавлянов.

Ансаибли «Бахор», «Заравшон», «Лазги», «Тановар», «Сумалак», «Момогул», «Навоий наволари», «Наманган гуллари», «Самарканд бахори»,«Бойсун», «Шодлик» - ансамбль песни и танца и др.

Ансамбль от французского, енсембле «вместе, множество» - совместное исполнение музыкального произведения несколькими участниками и само муз-е произведение для небольшого состава исполнителей. Ансамбли подразделяют вокально – инструментальные, и по жанру исполнения: рок- бэнды, эстрадные, народные.

Виды ансамблей: в зависимости от количества исполнителей ( от 2 и более) ансамбли называются дуэтом, трио, (терцетом), квартетом, квинтетом, секстетом, септетом, нонетом, дециметом, ундециметом или дуодециметом ( по латинским названиям чисел).

Умение играть с одним или несколькими партнерами составляет одну из важнейших сторон профессионального мастерства музыканта – исполнителя. Для того, чтобы успешно играть в музыкальном ансамбле, музыканту недостаточно свободно владеть своим инструментом. Игра музыканта в ансамбле отличается от сольного выступления как особый вид исполнительского искусства.

У участника вырабатывается (развивается, формируется) навык, который выдающийся педагог А.Готлиб ансамблевой фокусировкой слуха. Если солист – инструменталист привык слушать только себя, то инструменталист – ансамблист должен отказаться от привычной для солиста фокусировки слуха, так как звучание его инструмента уже не представляет собой единственную ценность и зависит от звучания других инструментов ансамбля.

Ансамблевое искусство в различных жанрово – стилистических формах всегда пользовались широкой поулярностью среди композиторов исполнителей и слушателей во все исторические эпохи и в целом оставаться популярным и в наши дни. В современном мире достаточно активно проводятся концерты, конкурсы, фестивали ансамблевой музыки, активно функционирует различные творческие организации. Проблемам камерно- ансамблевой музыке специально посвящаются конференции, симпозиумы. Коллективная игра на музыкальных инструментах, мощное средство патриотического воспитания и обучения учащихся и студентов музыкальному искусству.

Искусство ансамбля основывается на постоянной координации творческих усилий исполнителей, требует умения слышать общее звучание и сочетать свою исполнительскую манеру с партнѐром.

Структура каждого урока должна содержать многие аспекты музыкального воспитания, куда входят теоретические знания, изучение средств музыкальной выразительности, развитие художественного и логического мышления, звуковысотного, тембродинамического, ладогармонического и ритмического слуха, освоение технических навыков игры на инструменте, чтение нот с листа, подбор по слуху и транспонирование.

Очень полезен метод ансамблевого обучения, при котором ученик вовлекается в активное музицирования, получая возможность воспринимать всю полноту художественного образа музыкального произведения.

( А.Готлиб. Основы ансамблевой техники. М.Музыка,1971,94 с.)

Игра в ансамбле хорошо развивает чувство ритма, гармонический слух, воспитывает навыки восприятия и освоения многоэлементной структуры музыкальных произведений. В ансамбле воспитываются навыки чтения нотного текста с листа, изучение разного вида гамм и упражнений в самых разнообразных ладотональных, интервальных и аккордовых сочетаниях.

В первый период работы пьесы для ансамбля нужно подбирать контрастные по темпу и разные по характеру, чтобы разнообразить работу ансамбля. Тщательно настраивать инструменты. Во время настройки звучание струн обычно немного завышают в расчѐте на то, что колок спустит.

Постоянная смена пьес по темпу, характеру, нюансировке способствуют поддержанию у музыкантов к игре. Разучивая пьесу в медленном темпе нужно добиваться точного воспроизведения нотного текста, над наиболее сложными местами работать отдельно, если есть уверенность, что ансамбль с пьесой справится в целом сразу, то можно начать с технических и ритмических трудностей. Пройти их по отдельной партии и т.д. Если пьеса не получается сделать в репетиции незапланированный перерыв, затем снова поработать над пьесой.

В первой части репетиции ансамбль должен заниматься более сложной работой, разучивая новую пьесу, работать над технически сложными местами. Во второй части репетиции желательно играть ранее выученные произведения.В начале репетиции участники более работоспособные и обладают более высокой умственной и эмоциональной активностью, к концу репетиции в связи с их утомлением внимание и эмоциональная отзывчивость снижаются, работать становится значительно сложнее.

При трактовке музыкального произведения необходимо тщательно проработать текст.В ансамбле каждый участник на виду, и поэтому на исполнителей в ансамбле ложится большая ответственнсть нежели в оркестре.Каждый участник должен быть подвинутым в техническом отношении, твѐрдо знать свою партию, потому что каждая ошибка, каждый промах будут заметны при исполнении.

Задачи руководителя ансамбля: Прежде чем переложить или выполнить инструментовку какой-либо пьесы для состава своего ансамбля нужно знать основные законы и принципы инструментовки для ансамбля узбекских народных инструментов.

Руководитель является непосредственным организатором класса ансамбля. Он всегда должен помнить, что коллективные занятия преследуют не только учебные, но и большие воспитательные цели и задачи. Настоящий педагог – руководитель знает психологию каждого музыканта ансамбля и всегда может найти с ним общий язык.

Руководитель обязан: Проявлять максимальную выдержку и тактичность, корректность, вырабатывать в себе индивидуальный подход к каждому. Строгость и взыскательность, терпеливость, следование намеченному плану, принципиальность и, вместе с тем гибкость в выборе средств воздействия на участников способствуют достижению творческих успехов. Получив эстетическое удовлетворение от своей деятельности, участники ансамбля начинают понимать справедливость требований руководителя и проникаются к нему доверием и уважением.При выборе репертуара желательно учитывать и пожелания участников – кроме народной и классической музыки много хорошей эстрадной музыки которая и придаст эстрадной пьесе неожиданную новизну и свежесть.Участники и слушатели зачастую точно оценивают качество исполнямого произведения, если пьеса интересно инструментована и профессионально исполнена.

Руководитель должен учитывать технические возможности каждого участника ансамбля. Он должен знать: Строй, рабочий диапазон каждого инструмента, способы звукоизвлечения, штрихи и их обозначения в нотах,
правила голосоведения, построения и соединения аккордов. Руководителю необходимо помнить о том, что инструментовка или переложение пьесы – творческий процесс. Нужен осмысленный и глубокий подход. Нужно развивать внутренний слух, уметь представить себе звучание партитуры. Нельзя механически расписывать произведение без мелодии, аккомпанемента, гармонического сопровождения.

Современному руководителю очень полезно освоить нотные редакторы, для примера - программу «Sibelius», чтобы фиксировать свои партитуры (инструментовки учѐта характера ,аранжировки,обработки) и др. для ансамбля,

оркестра. Нотный редактор «Сибелиус» - изумительное явление в современных нотной технологии, оно очень удобно. С готовой партитуры удобно и быстро можно распечатывать партии для ансамбля, оркестра, легко транспонировать произведение в любую тональность, в результате фантастически экономится время.

Каждый народ имеет свои национальные инструменты, история которых уходит вглубь веков. Люди сопровождали пение, танцы и быт в целом игрой на музыкальных инструментах. Эти народные инструменты дошли до нас от наших предков. В практике ансамблей узбекских народных инструментов сложились определѐнные пропорции и соотношения инструментов.

Традиционные: Най, гиджак, чанг. Дутары: альт, прима, бас. Рубабы: кашгарский, афганский, ударные инструменты (дойра,) В зависимости от художественной необходимости в ансамбль вводится фортепиано, маримбафон или ксилофон, аккордеон, другие ударные инструменты.

Искусство исполнительства в Узбекистане, развитие и формирование его репертуара тесно взаимосвязано с развитием композиторского творчества. Эти сферы неотделимы друг от друга и главным итогом этой работы является выступление ансамбля на концертной сцене.

Большое влияние на развитие концертного репертуара ансамблей оказали ежегодные республиканские, а позднее, международные фестивали-конкурсы «Навруз садолари» проводимые среди оркестров и ансамблей узбекских народных инструментов, которые, несомненно, способствовали творческому развитию коллективов, положительно влияли на их исполнительский уровень и репертуара.

Благодаря их творчеству исполнительское искусство на узбекских народных инструментах стало всеобщим достоянием многих людей.

Ансамбли народных инструментов можно разделить на два типа:

**Однородные:**

А) ансамбль наев
Б) ансамбль чангистов
В) ансамбль рубабистов
Г) ансамбль дутаристов
Д) ансамбль гиджакистов

**Смешанный:**

(Смешанными – называются ансамбли, в которых используются инструменты с разными источниками звука, способами звукоизвлечения и различной акустической средой.)

А) ансамбль дутаристов и рубабистов
Б) ансамбль дутаристов и чангистов
В) ансамбль дутаристов, рубабистов и чангистов и т.д.

## Цели и задачи класса ансамбля

